

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 175 (1774), 2026-yil 27-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZGARGAN INSON, O‘Z KUCHIGA ISHONGAN FUQARO, ERTANGI KUNGA DAXLDORLIGINI HIS QILAYOTGAN JAMIYAT – YANGI O‘ZBEKISTONNING ENG KATTA NATIJASI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 26-avgust kuni Ko‘ksaroyda bir guruh vatandoshlarimizga davlatimizning yuksak mukofotlarini topshirdi.



Otayotgan har bir munavvar tong, o‘tayotgan har bir daqiqa bizni mamlakatimiz mustaqilligining shonli 35 yilligi bayramiga yaqinlashtirmoqda. Bunday dorilamon, shukuhli damlarda har bir yurtdoshimiz qalbi faxr-iftixorga to‘lib-toshishi shubhasiz. Shu bilan birga, milliy istiqlolimiz shodiyonasi ortga nazar solish, bosib o‘tgan yo‘limizni sarhisob qilish pallasi hamdir.

Shu ma’noda, Ko‘ksaroyda o‘tgan tantanali taqdirlash marosimini ham o‘ziga xos sarhisob deyish mumkin. Zero, bu yerda mamlakatimizda yig‘ilgan O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi shiddatli islohotlar samaradorligini ta’minlash, yurtimiz tinchligi, iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligiga munosib hissa qo‘shayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz, faollar jam bo‘ldi. Ular Prezidentimizning tegishli farmonlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Davlatimiz rahbari ushbu mukofotlarni topshirishga bag‘ishlangan marosimda, avvalo, barchani Mustaqillik bayrami, ishtirokchilarni davlatimizning yuksak mukofotlari bilan samimiy tabrikлади.

— 35 yil — tarix uchun juda qisqa davr. Lekin ortda qolayotgan yillar o‘zining ko‘lami, yutuq va natijalari bilan asrga tatigulik davr bo‘ldi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Yurtimizda istiqol sharofati bilan erishilayotgan katta natijalar, ayniqsa, keyingi o‘n yillikda inson qadriini ulug‘lash yo‘lida barcha soha va tarmoqlarda qo‘lga kiritilayotgan tarixiy yutuqlar, jamiyatimizda kechayotgan yangilanish jarayoni, odamlar tafakkuridagi o‘zgarishlar mohiyatiga to‘xtalar ekan, davlatimiz rahbari ushbu o‘zgarishlarning haqiqiy muallifi mehnatkash va olijanob xalqimiz ekanini alohida qayd etdi.

Darhaqiqat, so‘nggi o‘n yilda xalqimiz bilan bamaslahat, o‘zaro hamjihatlikda qilinayotgan ishlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sur‘atda barqaror o‘smoqda. Jumladan, o‘tgan davrda mamlakatimizga 160 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya kiritildi. O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, yurtdoshlarimizni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, bu borada ularga turli imtiyozlar berish, byurokratik to‘siqlarni olib tashlash, foydalanilmayotgan ichki

imkoniyatlarni ishga solish kabi ta’sirchan choralar, tadbirkorlik rivoji yo‘lida amaliyotga tatbiq etilgan samarali mexanizmlar hisobiga iqtisodiyotimiz 2,5 barobardan ziyod ko‘paydi.

Sanoat tarmoqlari, servis va qishloq xo‘jaligi sohalarida 5 million 700 ming doimiy ish o‘rni ochildi. Davlat va xususiy sektor ishtirokida 1,5 million o‘rinli zamonaviy maktab, 342 ming o‘rinli bog‘cha va 62 ming o‘rinli shifoxonalar ishga tushirildi.

Albatta, yirik investitsiyalar loyihalar, tadbirkorlik harakatining keng ommalashishi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda yurtdoshlarimiz turmush tarzi, farovonligida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Hozir aholining kambag‘allik darajasi 4 foizga tushirilgani fikrimiz tasdig‘idir. Binobarin, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar boshlangan davrda mamlakatimiz aholisining qariyb uchdan bir qismi kambag‘allik chegarasida yashaganini hisobga olsak, ushbu natijaning ahamiyati naqadar muhim ekani yanada ravshanlashadi. Asosiysi, ortga qaytmaz tus olgan islohotlar samarasida joriy yil yalpi ichki mahsulot hajmi 180 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Odamlarning uzog‘ini yaqin qilish maqsadida 83 ming kilometr umumiy foydalanishdagi ichki yo‘llar qurildi va ta’mirlandi. Hududlardagi 8 million kishi yashaydigan xonadonlarga ilk bor markazlashgan ichimlik suv kirib bordi. Yana 11,5 million fuqaroning suv ta’minoti yaxshilandi.

Prezidentimiz aholini uy-joy bilan ta’minlash masalasiga to‘xtalar ekan, Andijon viloyatidagi avvalgi murakkab holatga e’tibor qaratdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki O‘zbekistonning bir foiz hududida joylashgan ushbu viloyatda mamlakat aholisining 10 foizi istiqomat qiladi. Tabiiyki, bir xonadonda 4-5 tagacha oilaning yashashiga to‘g‘ri kelgan.

O‘tgan o‘n yilda 650 ming oilaga mo‘ljallab qurilgan yangi zamonaviy uy-joylar nafaqat shu kabi noqulayliklarni bartaraf etish, balki kamida 2,5 million yurtdoshimizning turgan ichra kichik o‘z vatani bo‘lishi, demakki, ularning bugungi yashayotgan kunidan roziligiga erishishga zamin yaratdi.

Davlatimiz rahbari mustaqillikning qadr-qimmatini qishloqda rizq-ro‘z yaratayotgan fermer va dehqonlar, farzandlarga ta’lim-tarbiya berayotgan ustoz va murabbiylar, inson hayotini

asrayotgan shifokorlar mehnatida namoyon bo‘lishini qayd etdi.

Bunda, shubhasiz, olimlar, sanoatchi va tadbirkorlar, quruvchi hamda arxitektorlar, madaniyat, san’at va sportni rivojlantirish yo‘lida xizmat qilayotganlar, davlat xizmatchilari, nuroniylar va mahalla faollari, harbiylar va huquq-taribat xodimlarining ham alohida hisssasi bor.

— Yangi O‘zbekistonning eng katta natijasi bu o‘zgargan inson, o‘z kuchiga ishongan fuqaro, ertangi kunga daxldorligini his qilayotgan jamiyattir, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Ana shu ezu o‘zgarishlarga munosib hissa qo‘shayotgan fidoyi insonlarning 558 nafari mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

— Har biringizning mashaqqatli mehnat yo‘lingiz, erishgan yutuqlaringiz, yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shayotgan munosib hissangizni juda yaxshi bilaman, — dedi Prezidentimiz.

Xorazmlik Rustam Sultonov, surxondaryolik Abdusattor Qurbonov, bekobodlik metallurg G‘ulomjon Turonov, namanganlik fermer

Ilhom Ziyovuddinov, buxorolik pillakor Jamila Xudoyberdiyeva, qoraqalpog‘istonlik chorvador Esenbay Aytimuratov, samarqandlik irrigator Aslanqul Karimqulov singari yuzlab o‘z kasbining fidoyilari, bilimdonlarining samarali mehnati evaziga bugun mamlakatimiz barqaror rivojlanmoqda. Yangi O‘zbekistonning ovozi eng nufuzli minbarlarda ham baland yangramoqda. Davlatimizning xalqchil, tinchlikparvar siyosati dunyoda e’tirof etilyapti.

Prezidentimiz davlat mukofotini olgan har bir insonning mehnati va ko‘rsatgan jasorati alohida e’tirofqa munosib ekanini ta’kidladi. Shu kunlarda joylarda unvon, orden va medallarni qabul qilib olayotgan yurtdoshlarimizga ham samimiy tabriklar aytiladi. Marosimda mamlakatimiz yetakchisi mukofotlarni o‘z egalariga tantanali ravishda topshirdi.

Mukofotlanganlar yuksak e’tibor uchun minnatdorlik bildirib, xalqimizga ezu tilaklar yo‘lladi.

Avazbek XUDOYQULOQ,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligini

nishonlash arafasida xalqimizga xos ezigulik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, kechirimli bo‘lish kabi olijanob fazilatlarini namoyon etgan holda hamda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni avf etish to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan 852 nafar shaxs avf etildi.

Afv etilgan shaxslarning 604 nafari jazodan to‘liq ozod qilinadi, 115 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadi, 52 nafarga tayinlangan jazo yengilroq jazo bilan almashiriladi. Shuningdek, 81 nafa shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartiriladi.

Afv etilganlarning 7 nafarini chet el fuqarolari, 49 nafarini ayol, 37 nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar, 375 nafarini yoshlar hamda 63 nafarini taqtiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan avf etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘ZA

Taro ASO: “YAPONIYA – O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI TOBORA STRATEGIK AHAMIYAT KASB ETIB BORMOQDA”

Yaponiya sobiq Bosh vaziri, parlamentning O‘zbekiston bilan do‘stlik ligasi raisi, Vakillar palatasi deputati Taro Aso mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida “Duny” AA orqali O‘zbekiston xalqiga o‘zining samimiy tabrigi va ezu tilaklarini yo‘lladi.

— Mamlakat mustaqilligining 35-yilligi munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev hamda butun O‘zbekiston xalqini samimiy muborakkob etaman.

Yaponiya O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng 1992-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatgan ilk davlatlardan biri hisoblanadi, — dedi Taro Aso. — O‘shandan buyon ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar siyosat, iqtisodiyot, madaniyat kabi sohalarda izchil rivojlanib kelmogda.

Davomi 2-betda

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!



O‘TTIZ BESH YOSHLI ISTIQLOL: YANGI O‘ZBEKISTON QISSASI



Mustaqillik bayrami arafasida bosib o‘tilgan yo‘l, o‘zgargan hayot va oldinda turgan vazifalar haqida mulohaza

Kecha va bugun

1991-yil, kuzning ilk kunlari.

Mustaqillik biz uchun mulqo yangi va hali to‘liq anglab ulgurilmagan, kutilmagan voqea edi. Men endi 17 yoshga to‘lgan talabaman. Barchamizni bir xil savodlari o‘ylantirardi:

Endi nima bo‘ladi?

Mamlakat o‘zini himoya qila oladimi?

Xalqni non va zarur mahsulotlar bilan ta’minlay olamizmi?

Turmushimiz qanday kechadi?

Tirikchilik nima bo‘ladi?

Tashqi iqtisodiy aloqalar endi shakllanayotgan edi. O‘shanda biz Singapur, Yaponiya, Malayziya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlarga havas bilan qarardik. Savol qiyndi: Ular qisqa muddatda qanday taraqqiy etdi? Nega ularda marketlar to‘la, yo‘llar ravon, maktab va universitetlar zamonaviy qiyofada? Chunki biz safarlarda bu manzaralarni ko‘rardik. O‘zimizda esa do‘kon peshtaxtalarining aksariyati bo‘m-bo‘sh edi. Katta zavod va fabrikalar, kolxoz va sovxozlar inqirozga yuz tutgandi. O‘shanda o‘zinga ko‘p savol berganman:

yillar o‘tib, O‘zbekiston qanday mamlakat bo‘ladi? Bugun ortda qolgan yillarga nazar tashlasak, mamlakatimiz murakkab, biroq muhim va salmoqli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Mustaqillikning dastlabki yillari, avvalo, xavfsizlikni ta’minlash va barqarorlikni saqlash bilan bog‘liq edi. Bu davr oson kechmadi. Biz o‘sha davrdagi hadik va

qo‘rquv bois, ko‘plab muammolarga o‘ralashib qoldik. Bu esa qat’iy qaror qabul qilishga imkon bermadi. Siyosatda turg‘unlik tushunchasi bor, lekin **erkin inson tabiati botqoqni xushlamaydi**. Unga parvoz kerak, kenglik kerak!

Evrilishlar qanday boshlandi?

Mamlakat bir vaqtning o‘zida ko‘plab ichki va tashqi muammolarni hal qilishi, yangi davlat institutlarini shakllantirishi va iqtisodiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi kerak edi. Bugun esa vaziyat butunlay boshqacha. Xo‘sh, bunga qanday yo‘l bilan erishildi? 2016-yil yangi O‘zbekistonning boshlanish davri bo‘ldi. Shu yili 4-dekabr kuni Prezidentlik saylovi bo‘lib o‘tdi. Unda 88,61 foiz ovoz bilan Shavkat Mirziyoyev o‘ta ishonchli g‘alabani qo‘lga kiritdi. Shu kundan davlatimiz yangi tarixida mulqo yangi davr boshlandi.

Bugungi dunyo bamosoli bepoyon okean. Shiddatli bo‘ron va to‘fonlarga to‘la, tahdidlar ko‘p. Biroq u yerda hayot qaynayapti. Hamma harakatda. **O‘zbekiston mana shu to‘fonga qo‘rqmay kirib keldi**. Mamlakat iqtisodiyoti sezilarli darajada o‘sib, salohiyati esa tobora osha boshladi. Inson qadriini ulug‘lash, tadbirkorlikni rivojlantirish islohotlarning bosh tamoyili qilib belgilandi.

O‘zbekistonda yirik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, xalqaro bozorlarga chiqish va xorijiy kompaniyalar hamda investorlar bilan raqobatlasha oladigan yangi tadbirkorlar qatlami shakllanishi

boshlandi. Bundan o‘n yil avval O‘zbekistonda har bir tadbirkor biznesni rivojlantirishdan ko‘ra, uni saqlab qolish, yo‘qotmaslik haqida ko‘proq o‘ylardi. Maqsadsiz va son-sanoqsiz tekshiruvlar, ortiqcha aralashuvlar va turli bosimlar tashabbusni bo‘g‘ardi. Biznesni kengaytirish imkoniyat emas, balki xavfdek tuyulardi. Shu bois, odamlar ko‘zga tashlanmaslikka intildilar. **PANADAGI BIZNES, PANADAGI IQTISODIYOT, PANADAGI ODAMLAR** — o‘sha davrning og‘riqli manzarasi edi. Yaqinda, 18-avgust kuni Prezidentimizning Xorazmda tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq mulqotida “Akfa” kompaniyasi asoschisi Jahongir Ortiqxo‘jayev ham o‘sha yillarni eslab, o‘z kompaniyasiga bo‘lgan bosimlarni, **“maska shou”larni**, o‘z biznesini rivojlantirishdan ko‘ra, qanday qilib uni saqlab qolish haqida tunlari bedor bo‘lganini yodga oldi. Darhaqiqat, o‘sha davrda odamlar rivojlanish haqida emas, **faqat omon qolish haqida o‘ylardi**. Soliqchilarning asossiz bosimi va nohaq talablari esa tadbirkorlar uchun doimiy tahdidga aylangan edi. Har bir kichik do‘kon, dorixona yoki yirik biznesning soliq idorasida o‘z “krisha”si bo‘lishi shart edi. Bu “krisha”lar har oy 100 dollardan bir necha ming dollargacha o‘lpon yig‘ardi. Dorixona biznesi bilan shug‘ullangan o‘z ukam Olimxon misolida bunga guvoh bo‘lganman. **“Nega doim soliqchilarga pora berasan?” deb so‘raganimda, u: “Aka, agar bermasam, ertaga tekshiruv kelib, dorixonamni yopib ketadi”,** deya atrofga olazarak qarab, qo‘rquv bilan gapirardi.

Davomi 3-betda

Qadriyatlar va vatanparvarlik sabogʻi

O'ttiz besh yillik yo'lining davomi

kelajagımız, Ertangi künhi kimdir biz üçün
qurib bermaydi. Uni bugungi qarorlarımız,
mehnatımız, bilimimiz va mas'uliyatimiz orqali
o'z qo'limiz bilan bunyod etamiz!

**Barchamizga Mustaqillik bayrami
muborak bo'lsin!**

emas, balki nimani bilasan?" degan mezonni
kuchaytirishga xizmat qilishi kerak. Ta'limdagi
islohotlar mohiyatini anglash uchun yaqin
o'tmish manzarasini eslashning o'zi kifoyadi.
Bir vaqtlar maktab ta'limi paxta mavsumiga
moslashtirilgan, o'quvchilar mavsumiy qishloq
xo'jaligi ishlariga majburiy jalb etilib, natijada
darslar muntazam o'tilmay qolardi. Oliy
ta'limda ham vaziyat bundan farq qilmasdi.
Talabalar o'quv yili boshlanganiga hali bir
necha kun bo'lmasdanqo paxta dalalarini
yuboriblar, kuzgi mavsumni dalalarda o'tkazib,
qish oyilarida o'qishga qaytardi. Ta'lim
jarayonining paxta mavsumiga bog'lanib
qolishi mustaqillikning dastlabki yillarida
ham to'liq barham topmadi. Bu oddiy yoki
tashkiliy muammo emas edi. Paxtaga chorak
asr qaramlik ta'limning asosiy vazifasini
izdan chiqarib, o'quvchining ham, talabasi
ham bilim olish huquqini keyingi darajaga
tushirib qo'ydi. Dars soatlari yo'qotilar, o'quv
dasturlari to'liq o'zlashtirilmasa, ustoz va
talabaniy asosiy vaqti bilim olishga emas,
mavsumiy mehnatga sarflanardi. Majburiy
mehnatdan voz kechish ta'lim tizimidagi oddiy
o'zgarish emas, uning maqsadi va vazifasidagi
tblr butirilib bo'ldi.

66

Bir soʻz bilan aytganda, dunyoda ayrim davlatlar oʻz chegaralarini tobora balandroq devorlar bilan oʻrashga intilayotgan bir paytda Oʻzbekiston ochiqchilik va hamkorlikka xizmat qiladigan koʻprik barpo etmoqda. Bu koʻpriklarni mamlakatimizni mintqa davlatlari, yirik iqtisodiy markazlar va butun dunyo bilan bogʻlaydi. Shavkat Mirziyoyevning siyosiy faoliyati esa nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo qitʼasida zamonaviy liderlik — ochiqchilik, mulohat va oʻzaro manfaatga asoslangan yangi

Dunyoga ochilayotgan O‘zbekiston

► Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida Uinston Cherrillingning ushbu iqtibosini keltirgan edi: **“Ba’zilar**

to'siqlar, minalardan halok bo'lgan va nogiron bo'lib qolgan yuzlab insonlar, bir ko'chanadagi aka-uka va qarindoshlari, yillik davomidagi begonaga aylantirgan chegaralar misolidagi ko'rinadi. **Uz qufarosisiga ishonmagan, uning haq-huquqini poymol qilgan davlat qo'rquv-saltanati bo'lmay, nima?** Bunday siyosat mamlakatimizning xalqaro imijiga ham zarba berdi. Paxta dalalaridagi majburiy mehnat, ayvonsika, bolalar mehnati xalqaro tanqid va boshqotilarga sabab bo'ldi. **Bugun ortiz nazar**

Poytaxtimiz yana bir xalqaro miqyosdagi anjumanga mezbonlik qildi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tashabbusi bilan BMT Taraqqiyot dasturi, YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori hamda Konrad Adenauer jamg'armasi vakolatxonasi bilan hamkorlikda “Raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlari: zamonaviy yondashuvlar” mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan anjuman muhokamalarida 30 ga yaqin davlatdan ombudsmanlar, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, xalqaro tashkilotlar vakillari, ekspertlar qatnashdi.

Raqamli transformatsiya sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni muhokama qilish, ilg'or xorijiy tajribalar bilan almashish va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan konferensiyada Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva hamda Qonunchilik palatasi spikeri



Xalqaro anjuman

o'rinbosari Mavluda Xo'jayeva bugun raqamli texnologiyalar insonning ta'lim olishi, mehnat qilishi, davlat xizmatlaridan foydalanishi, axborot olishi va jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlar ochayotgani bilan

bir qatorda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, kiberbulling, onlayn zo'ravonlik va kamsitish, zararli kontent, raqamli xizmatlardan teng foydalanish kabi masalalar inson huquqlarini himoya qilishning yangi va dolzarb

yo'nalishlariga aylanayotganini alohida qayd etdi.

Shu nuqtayi nazardan, konferensiyada raqamli taraqqiyot inson manfaatlariga xizmat qilishi, yangi texnologiyalar joriy etilishi

jarayonida inson huquqlari va qadr-qimmati ustuvor bo'lib qolishi lozimligiga e'tibor qaratildi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Feruza Eshmatova raqamli transformatsiya

So‘z anjuman ishtirokchilariga



Mariya TELYALIAN,
YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori:

— Bugun raqamli transformatsiya jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Insonlarga yangi imkoniyatlar yaratayotgan texnologiyalar ularning huquqlarini cheklash uchun qo'llanishi ham mumkin. Kuzatuv texnologiyalari, shaxsiy ma'lumotlarni haddan tashqari yig'ish, internetdagi ta'qib va tazyiqlar, algoritmik tarqashlik hamda dezinformatsiya demokratiya

va inson huquqlariga real ta'sir ko'rsatadi.

DIIHB ushbu masalalarni hal etishda O'zbekiston va uning davlat organlari, jumladan, Inson huquqlari bo'yicha vakil bilan yaqin hamkorlik qilishga tayyor. Biz O'zbekiston bilan yangi hamkorlik dasturi doirasida raqamlashtirish jarayoniga faqat texnik taraqqiyot nuqtayi nazaridan emas, balki inson huquqlarini ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida yondashmoqdamiz. Bu boradagi tashabbuslar qatorida yoshlarning kiberjinoiyatlarga qarshi chidamliligini oshirishga qaratilgan qo'shma dasturni alohida ta'kidlash mumkin. Uning doirasidagi tadbirlar orqali 100 mingga yaqin yosh qamrab olindi.



Sabine MAXL,
BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori:

— O'zbekistonning ayol-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash borasidagi xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. Mamlakatda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan strategiya qabul qilingani hamda oiladagi zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangani bu yo'nalishdagi muhim qadamlar bo'ldi.

O'zbekistondagi hamkorlarimiz bilan birga YXHT dasturlari muvofiqlashtiruvchisi ofisi tomonidan ham mazkur yo'nalishda qator ishlar qilindi. Xususan, zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarning manfaatlarini markazga qo'yadigan yondashuvlarni tergov va jinoiy ta'qib jarayonlariga tatbiq etish, gender stereotiplarining oldini olish hamda ayol jurnalistlarning huquqlari va xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

hamda oiladagi zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangani bu yo'nalishdagi muhim qadamlar bo'ldi.

O'zbekistondagi hamkorlarimiz bilan birga YXHT dasturlari muvofiqlashtiruvchisi ofisi tomonidan ham mazkur yo'nalishda qator ishlar qilindi. Xususan, zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarning manfaatlarini markazga qo'yadigan yondashuvlarni tergov va jinoiy ta'qib jarayonlariga tatbiq etish, gender stereotiplarining oldini olish hamda ayol jurnalistlarning huquqlari va xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.



Georgios KATRUGALOS,
BMTning demokratik va adolatli xalqaro tartibotni rag'batlantirish masalalari bo'yicha mustaqil eksperti, ommaviy huquq professori, Gretsiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri:

— Bugungi xalqaro anjumanda ikkinchi sessiya raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar huquqlarini himoya qilish, internet xavfsizligi, kiberbulling va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlandi. Bu juda ham dolzarb muammo. Sababi, dunyo miqyosida internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali bolalarga turli darajada zarar yetkazilayotgani haqida dalillar yetarli. Lekin shu bilan birga, biz so'z erkinligi huquqini himoya qilish yo'lini ham topishimiz kerak.

Shunisi aniqki, yoshlarga, bolalarga internetni taqiqlash muammoga yechim bo'la olmaydi. Avstraliya tajribasidan bilimizki, 5 millionga yaqin akkaunt yopilgach, bolalar bu taqiqlarni aylanib o'tish uchun himoyalangan va umuman nazorat qilinmaydigan maydonlarga o'tib ketdi. Internet chegarasi bilmas global tizim bo'lgani uchun yechimlar ham global miqyosida bo'lishi lozim. Xalqaro konferensiya bu boradagi qarashlarimizni o'zaro baham ko'rish, masalaga har tomonlama samarali yechim topish uchun muhim muloqot maydoni bo'ldi.

Marino FARDELLI,
Latsio ombudsmeni va Italiya ombudsmanlarining milliy muvofiqlashtirish kengashi prezidenti:

— Nazarimda, Toshkent deklaratsiyasini inson qadri, inklyuzivlik, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli savodxonlik va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish tamoyillarini birlashtiruvchi raqamli inson huquqlari sohasidagi umumiy platforma sifatida baholash mumkin.

Mazkur deklaratsiya “Toshkentdan — dunyoga” degan g'oyani ham o'zida mujassam etadi. Sababi, bu kabi xalqaro darajadagi muloqotlar Toshkentning raqamli davrda inson huquqlarini ta'minlash sohasida mustarak yondashuvlarni ishlab chiqish uchun turli davlatlar va institutlar vakillarini birlashtiruvchi xalqaro maydon sifatidagi nufuzi tobora ortib borayotganini namoyon etadi.



Kun mavzusi

Yangi o'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Talabalarni o'ylantirayotgan muhim masalalardan biri — turar joyga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash shu kunlarda yanada dolzarb. Joylarda yangi qurilgan binolarni foydalanishga topshirish, talabalarning turar joyga ehtiyojini muqobil mexanizmlar orqali qoplash bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Ana shunday ezuq va xayrli ishlarning uzviy davomi sifatida mustaqilligimizning 35 yilligi bayrami arafasida oliy ta'lim sohasida yana bir muhim va tarixiy voqea yuz berdi. 2026-yil 24-avgust kuni yurtimiz bo'ylab yangidan barpo etilgan va kapital ta'mirdan chiqarilgan, 6200 o'ringa mo'ljallangan 13 ta talabalar turar joyi va 4000 o'rinni o'quv binolarini foydalanishga topshirish jarayoniga start berildi. Bu o'qish istagidagi yigit-qizlarning yashash sharoitini yaxshilash, ta'lim olishi uchun qulay muhit yaratish va oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabanning ta'limdan tashqari hayoti, ijtimoiy muhiti va yashash sharoiti ham ta'lim sifatiga bevosita ta'sir etuvchi omildir. Shu bois, talabalar turar joylari bilan bog'liq islohotlar oliy ta'limni insonga yo'naltirilgan tizimga aylantirishda muhim qadam bo'layotir. So'nggi yillarda talabalar turar joylari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar qilingani natijasida qamrov darajasi 2017-yildagi 28 foizdan 2026-yilda 58 foizga yetkazilgani fikrimiz dalildir.

2026/2027-o'quv yilida 209,1 ming abituriyent oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi. Toshkent shahridagi OTMlarga tavsiya etilgan 65 ming 876 abituriyentning 56 ming 457 nafari boshqa hududlardan kelib tahsil oladi. Ularni turar joy bilan ta'minlash muhim vazifalardan.

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra, davlat oliy ta'lim tashkilotlarida 394 ta talabalar turar joyi mavjud. 2026/2027-o'quv yilida ularga 161 mingga yaqin talaba joylashtirilishi rejalashtirilgan. Shundan 52 mingga o'rin

Toshkent shahridagi talabalar turar joylari to'g'ri keladi.

Yangi obyektlarni barpo etishda xususiy sektor, jumladan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanilmoqda. Bu esa ta'lim infratuzilmasiga xususiy kapitalni jalb qilish faqat ijtimoiy majburiyat emas, balki iqtisodiy jihatdan jozibador yo'nalishga aylanayotganidan dalolat beradi.

Talabalar turar joylari endilikda faqat yotoqxona emas, balki ta'lim muhitining uzviy qismi, talabanning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiylashuvi uchun muhim makonga aylanmoqda. Shu orqali oliy ta'lim tizimi “auditoriya — yotoqxona — jamiyat” uchligida yaxlit ekotizim sifatida shakllanib bormoqda.


Ustuvorlik mezonlari aniq belgilangan

Talabalarni yotoqxonaga joylashtirish Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan ma'muriy reglament talablari asosida amalga oshiriladi. 2024/2025-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari talabalar turar joyiga barcha kurs talabalarini joylashtirish onlayn shaklda kechmoqda. Turar joyga joylashish uchun ariza berish 1-avgustdan boshlanib, o'quv yili yakuniga qadar davom etadi.

Turar joyga joylashtirishda belgilangan ustuvorlik mezonlari inobatga olinadi. Jumladan,

TALABALAR TURAR JOYLARI

2026/2027-o‘quv yiliga tayyorgarlik qanday kechmoqda?



joylashtirish jarayoni 25-avgustdan boshlandi. Bu talabalarni o'quv jarayoni boshlangunga qadar bosqichma-bosqich joylashtirish imkonini yaratmoqda.

— O'qish boshlanishidan oldin uy-joy masalasini hal qilish maqsadida keldim, — deydi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ikkinchi bosqich talabasi Odilbek Allaqulov. — Yotoqxonaga ariza topshirdim. O'tgan yili yotoqxonada turganman va barcha sharoitlarni mamnunman. Universitetga yaqinligi hamda dars qilish uchun alohida o'quv xonalari ajratilgani, talabalarimga bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sport to'garaklari mavjudligi, barcha sharoitga ega sport zallari yoshlar ixtiyorida ekanini alohida e'tirof etishni istardim.

Joy olmaganlar uchun ijara mexanizmi

Talabalarining turar joyga ehtiyojini qondirishda ijara xonadonlardan foydalanish imkoniyatlari ham kengaytirilmoqda.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 124 mingdan ziyod talabanning ijara xonadonlarda yashash ehtiyoji mavjud. Ularni ko'llab-quvvatlash maqsadida ijara to'lovining bir qismi kompensatsiya qilinadi: Toshkent shahrida — 1 BHMgacha, ya'ni 440 ming so'mgacha; boshqa hududlarda — 0,5 BHMgacha, ya'ni 220 ming so'mgacha.

Shu tariqa turar joyga ehtiyojmand talabalar uchun yotoqxonadan tashqari ijara xonadonlardan foydalanish va ijara xarajatlarining bir qismini qoplash imkoniyati yaratilmoqda.

Talabalarga ijara xonadonlar topish va joylashishda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida 2026-yil avgust-oktyabr oylarida

talabalarni turar joylarga joylashtirishga ko'maklashuvchilari 169 ta markaz faoliyat yuritadi. Ularga 767 volontyor birkutirilgan. Ular talabalarga ijara xonadonlar haqida manzilli ma'lumotlar beradi, ehtiyoj va imkoniyatlariga mos xonadon tanlash hamda joylashishda amaliy ko'mak ko'rsatiladi.

Maqsad — munosib sharoit yaratish

Talabalar turar joylari sonini oshirish bilan birga ularning sharoitlari yaxshilashga ham alohida e'tibor qaratilayotir.

— Joriy yilda universitetimiz hududida 350 o'rinni talabalar turar joyi qirib birkazildi, — deydi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori To'lg'in Teshaboyev. — Shuningdek, universitetimizning Qoraqalpog'istondagi To'rtko'1 fakulteti uchun 600 o'rinni talabalar turar joyi qurilishini yakunladik. Binolarda ilm talabida bo'lgan yigit-qizlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Nogironligi bor talabalar uchun panduslar, kirish eshiklari, yuvinish xonalari alohida ko'rsatilgan me'yorlarda bajarildi.

Asosiy maqsad talabalarni faqat turar joy bilan ta'minlash emas, balki ularning o'qishi, yashashi va dam olishi uchun munosib sharoit yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash hamda turar joy masalasini hal etishning bir necha samarali mexanizmini bir vaqtda ishga tushirishdan iborat.

Kelgusida ham talabalar turar joylari sonini oshirish, ularning sharoitlarni yaxshilash, joylashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash va ijara xonadonlar mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Muhimi, talabalarimga turar joy masalasi ularning ta'lim olishiga to'sqinlik qilmasligi, har bir talaba uchun xavfsiz, qulay va munosib yashash sharoiti yaratilishi hamda yangi o'quv yilini uyushqoqlik bilan boshlashi uchun zarur imkoniyatlarni ta'minlashdir.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

